

RUS TILI O'QITISH METODIKASI

Muydinova Nasiba Ibragimovna

Kosonsoy tuman 1- son Kasb hunar maktabi Rus tili fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus tilini o'qitish metodikasi haqida hamda uni o'qitishdagi metodlar borasida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Rus tili, meto, pedagog, suhbat metodi, hikoya metodi, usul, o'quvchilar, samara.*

Rus tilini chet tili sifatida o'qitish turli o'qitish usullari va texnikasini talab qiladigan qiyin vazifadir. Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarning tilni samarali o'rganishlariga ishonch hosil qilishi, shu bilan birga ularni jalb qilishi va motivatsiyaga ega bo'lishi kerak. Rus tili o'qitishda texnologiyadan foydalanish yana bir samarali o'qitish usulidir. O'qituvchilar turli xil audio-vizual materiallardan, masalan, video, audio yozuvlar, interaktiv o'yinlar va viktorinalardan foydalanishlari mumkin. O'qituvchilar o'z darslarini lug'atlar, grammatika resurslari va til o'rganish ilovalari kabi onlayn resurslar bilan to'ldirishlari mumkin. Rus tilini o'qitishning boshqa o'qitish usullariga grammatika tarjimasini kiradi. Bu usullar o'quvchilarni grammatika qoidalarini o'rganish va matnlarni rus tilidan ona tiliga tarjima qilishni nazarda tutadi. Biroq, bu usul favqulodda bo'lib qoldi va yuqorida aytib o'tilgan boshqa usullarga qaraganda kamroq samarali hisoblanadi. Nihoyat, madaniyatni til o'qitishga kiritish o'quv tajribasiga yana bir o'lcham qo'shishi mumkin. Talabalar rossiya tarixi, urf-odatlar va oshxonasi haqida ma'lumot olishlari mumkin. O'qituvchilar o'z darslariga til o'rganishni boyitish uchun ham, o'quvchilar bilimini kengaytirish uchun ham madaniy elementlarni kiritishlari mumkin. Metod so'zi - yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nolarini anglatadi. Ta'lim metodi - o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini egallay hamda ulardan amalda ham foydalanish imkonini beruvchi ish usulidir. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil etishning tartibga solingan usullar majmuasi hisoblanadi.

Har qanday tilni o'rgatishda bolaning nutqi yodlangan iboralar va so'zlarga asoslanishiga yo'l qo'ymaslik kerak, zero bu narsa bolani cheklab qo'yadi va doimiy takrorlanishga olib keladi. Avval boshidanoq bolalar tomonidan rus tilini o'rganishning asosiy sababi bu muloqot qilish uchun foydalanish g'oyasini o'z ichiga olmog'i lozim. Ushbu jihat bolaga erkinlik taqdim etadi hamda ma'lum bir qolipga tushib qolishdan saqlaydi. O'qituvchilar, ota-onalar va yon atrofdagilar tomonidan aytilgan aytilgan narsalarni tushunish va anglash rus tili o'qitishning dastlabgi davrlarida asosiy maqsad bo'lmog'i lozim. Maktabgacha yoshda rus tilini o'rgatishda bolalarda muloqot va malaka asoslari asta-sekin shakllanadi, rus tilini o'rgatishning dastlabki bosqichlari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- o'qituvchidan keyin rus tilidagi so'zlarni fonetik nuqtai nazardan to'g'ri takrorlash qobiliyati;

- rus tili lug'atini mustahkamlash va o'zlashtirish;

- darslarni qiziqarli tashkil etadigan jihatlarga e'tibor qaratish va bolalarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish.

O'qituvchilarning metodikasi hamda kasbiy mahorati yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga erishishda katta rol o'ynaydi. O'qituvchi oldiga qo'yilgan vazifa - kommunikativ vazifalardan foydalanish va xilma-xillik orqali bolani qiziqtirish va uni mashg'ulotga jalb qilish, barcha o'quvchilarni qamrab olish uchun hamma imkoniyatlarni ishga solishdir. Misol uchun, so'zlarni o'rgatishda siz birinchi navbatda bolaga biror jismni ko'rsatasiz va uning nomini rus tilida talaffuz qilishga undaysiz, o'quvchilar so'zni talaffuz qiladilar va yangi so'zni qayta talaffuz qiladilar. Og'zaki nutqni rivojlantirishda nafaqat rasmlardan balki istalgan turdagi ko'rgazmali qurollardan foydalaning. Bundan tashqari, rus tili musiqa, she'rlar, tez aytishlar va qofiyadosh so'zlarni yodlatish, talaffuz qildirish ham ancha samarali hisoblanadi. Agar taqdim qilinadigan audio materiallar videokliplar bilan birga taqdim etilsa yanada samaraliroq bo'lar edi, sababi bunda maktabgacha yoshdagi bolalar unda aks ettirilgan muloqot holatini, muloqotga kirishayotgan shaxslarning mimikalari, tana harakatlarini kuzatib yanada jarayonni anglashlari tezroq kechar edi.

Quyida rus tilini o'qitishda qo'llaniladigan eng samarali o'qitish metodlaridan aytib o'tamiz.

SUHBAT metodi bu - o'quvchi shaxsini g'ayaviy, ma'naviy, axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usullardan biri hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun har tomonlama mosligi, dolzarbligi muhim ahamiyatga ega. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin.

1. Etik mavzular (ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, jamoa orasida o'zini tutish qonunqoidalari)

2. Estetik mavzular (tabiat go'zalligi, insongo'zalligi, shaxslararo munosabatlar)

3. Siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar).

4. Ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot va hayvonot dunyosi va boshqalar) kabi mavzularda suhbat tashkil etish ijodiy natija beradi.

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikr yuritishlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat etish juda muhimdir. Bu borada bahsmunozaraning ham katta ahamiyati bor.

HIKOYA metodi bunda o'quvchilar odatda turli xil misollar bilan boyatilgan hikoyalarga qiziqishadi va ularni sevib tinlashadi. Ularga xalq o'tmishi, ertak qahramonlarining hayoti, ularning ko'rsatgan jasoratlari haqida so'zlab berish mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, gazetalar, jurnallar, radiotelevideniyaedagi malumotlar ham o'quvchilarni aslo befarq qoldirmaydi. Suhbat yokki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan tanlanishi, ularning mazmunli va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Buning natijasida o'quvchilar ilgari

surilayotgan bu mavzuga e'tiborsiz bo'lishmaydi. O'z fikrlarini erkin ravishda bildira oladi. Bu esa fikrlarini rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh bolalarga til o'rgatish qiziqarli mashg'ulotdir. Bugungi kunga qadar barcha bog'chalar zarur jihozlar bilan ta'minlangan. O'qituvchi bolalar bilan ishlashda o'z metodikasiga amal qilishi, ularni rus va boshqa chet tillarini o'rganishga qiziqitira olishi kerak. Bolalar qo'shiqlari, she'rlari va boshqa bir qator o'yinlar yordamida o'qituvchi bolalarni yangi xorijiy tillarni o'rganishga jalb qila olishi kerak. Bundan tashqari, chet tilini o'rganish yangi ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishga, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi. Har bir ota-ona o'z farzandining chet tilini bilishini va o'zlashtirishini xohlaydi, shuning uchun chet tilini o'rganishni maktabgacha yoshdan boshlab 4-5 yoshdan boshlagan maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. X. Toxtaxodjayev "Pedagogika" Toshkent - 2010. 220, 221 - betlar.
2. I. Karimov "Barkamol avlod orzusi" Toshkent- 2000. 133, 134 – betlar
3. O. Z. Suyunov "Pedagogika Psixologiya" fanidan o'quv - uslubiy majmua. Samarqand2013.
4. Granik G. G. Maktabda rus tili. — M., 1972.
5. Granik G. G., Bondarenko S. M., Kontsevaya L. A. Rus tili bo'yicha seminar. — M., 1988.
6. Gubanova O. V. Levkina I. S. Sinfda o'yin texnikasidan foydalanish // Boshlang'ich maktab, 1997. — № 6.
6. Uktamovna, M. M. (2023). Enhancing Vocabulary Acquisition in B2 Level Students through Diverse Exercise Modalities and Reading Activities. *Genius Repository*, 26, 73-74.
7. Mamadjanova, M. (2023, December). SEMANTIC CLASSIFICATION OF EPITHETS IN THE ENGLISH LANGUAGE. In Fergana state university conference (pp. 88-88).
8. Uktamovna, M. M. (2023). Syntactic-Structural Classification of Epithet in the English Language". *American Journal of Science on Integration and Human Development* (2993-2750), 1(10), 60-62.
9. Mamadjanova, M. U., & qizi Malikova, G. X. (2023). HOW ENGLISH BECOME GLOBAL LANGUAGE: HISTORICAL OVERVIEW. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 888-892.
10. Mamadjanova, M. U., & qizi Xomidova, M. S. (2023). GRAMMAR TRANSLATION METHOD: EXPLORING ADVANTAGES AND DISAVANTAGES. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 309-311.
11. Uktamovna, M. M., & Oybekovna, Z. F. (2023). UNRAVELING THE CONNOTATIVE AND DENOTATIVE MEANINGS OF WORDS. *Научный Фокус*, 1(8), 640-642.
12. Tojiboyeva, M. S. Q. (2022). SEMANTIC DIVISION OF TOURISM TERMINOLOGY. *Scientific progress*, 3(6), 116-119.